

JALOLIDDIN RUMIYNING «ICHINDAGI ICHINDADIR» ASARI RUHIY OLAMIGA SAYOHAT: RUMIYNING HAQIQAT SABOG'II

Xalilova Diyoraxon Abdukamol qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti

o'zbek tili yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiyning ushbu asaridagi asosiy falsafiy g'oyalar, xususan, ichki haqiqatni kashf etish va ruhiy ozodlikka erishish jarayonlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: haqiqat, haqiqatga yetishish, o'zlikka qaytish, ruh va jism, ruhiy poklanish, iymon va namoz.

KIRISH

Rumiy haqida so'radilar: Biz aytdik: «Go'zal so'z o'rganib, go'zal so'z o'rgatuvchidir». Adabiyotning insonlar hayotiga ta'sir kuchi haqida ko'p va ho'p gapirilgan. Bir kitobni o'qir ekansiz muallifning nuqtayi nazari o'quvchining o'y-xayollariga o'tishini xis qilasiz. Shunday ulkan iste'dod sohiblari borki, ular bir necha asrlar ilgari yashagab bo'lsa-da, bugungi hayotimizda ahamiyatini yo'qotmagan fikrlarni ilgari sura olgan. Ana shunday ijodining muhimligi boqiylikka daxldor ijodkorlardan biri - Mavlono Jaloliddin Rumiidir.

ASOSIY QISM

Insonning ichki olami - sirli, ammo haqiqatning yagona va haqiqiy manzili. Mavlono Rumiyning falsafasi bu yo'ldagi qadamlarga, o'zini izlash va anglash jarayoniga yo'ldosh bo'ladi. Haqiqat tashqi dunyo emas, u har birimizning ichimizda yashirin. Bu sirni kashf etish uchun zarur bo'lgan narsa - ichki sayohat. Ushbu yo'l osoyishtalik emas, balki kuchli izlanishni talab qiladi. Ozodlikni kashf etish, shaxsiy haqiqatga yetishish - bu ruhiy sayohatning yakuni emas, balki o'zlikka qaytishning asosiy bosqichidir.

Jaloliddin Rumiy ijodi Sharq falsafasi va tasavvuf dunyosida ulkan ahamiyatga ega bo'lib, uning asarlaridan biri - «Ichindagi ichindadir» insonning botini va tasavvufdagi to'rt asosiy tushunchaning biri haqiqatni anglashga bag'ishlangan. Ushbu

asar mohiyatida insonning ichki va tashqi olamlari o'rtasidagi bog'liqlik, o'zlikni anglash va haqiqatni kashf etish jarayonlari yotadi. Rumiycha tafakkur insoniyatni o'z hayotini chuqurroq anglash va o'ziga yuksak ma'naviy nuqtayi nazardan qarashga undaydi.

"Ichingdagi ichindadir" asarining g'oyasi insonning o'z ichki olamida yashirin bo'lgan haqiqatni izlashdir. Rumiycha bu haqiqatni tashqi dunyoda yoki moddiy narsalarda emas, balki insonning o'z yuragi va ruhida yashiringan deb hisoblaydi. U ichki qudratni topish va uni rivojlantirish orqali chinakam haqiqatga yetish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu g'oya tasavvuf ta'limotida ham asosiy o'rinlardan birini egallaydi, chunki tasavvufda inson qalbi va uning ruhiy sayohatiga alohida ahamiyat beriladi.

Rumiycha o'z asarida haqiqatni tushunishga bo'lgan urinishlarni turli hikoyalar, rivoyatlar va shoirona tasvirlar orqali izohlaydi. Masalan, u ko'pincha insonning o'zligini anglashini "suvdagi oy" yoki "haqiqatni tutib olish" kabi timsollar bilan tasvirlaydi. Suvdagi oy insonning o'z ichida yashirin bo'lgan haqiqatni izlashdagi noaniqlikni va uni anglashdagi mushkullikni bildiradi. Shu bilan birga, haqiqatning o'zini ochib berishi uchun inson ruhiy poklanish, sabr-toqat va chuqur fikrlash jarayonlarini boshdan kechirishi kerak. Rumiycha ko'ra, inson har qanday tashqi ta'sirlardan xoli bo'lishi va o'z "ichidagi ichida" yashiringan haqiqatni izlash yo'lida o'zini rivojlantirishi muhim.

Rumiyning fikrlash usuli o'ziga xos mistik xarakterga ega. Uning nazdida, insonning hayoti chuqur ma'nolarga to'la bir sirli sayohatdir. U ko'pincha dunyo va undagi har bir hodisani Ollohning ramzi sifatida tushuntiradi. Ya'ni, dunyodagi barcha narsalar Ollohning yuksak haqiqatini ochib berish uchun bir vositadir. Shu sababli Rumiycha dunyoni va undagi har bir narsani Ollohning go'zalligi va donoligini aks ettiruvchi bir ko'zguga o'xshatadi. U har bir insonning haqiqatni izlashdagi sayohatini "Ichingdagi ichindadir" asarida tasvirlagan yo'llar va hikoyalar orqali tavsiflaydi. Bu esa insonlarni o'zlarini anglashga, ichki dunyolarini chuqurroq o'rganishga undaydi.

Jaloliddin Rumiyning «Ichingdagi ichindadir» asari insonning ichki dunyosini va ruhiy o'sishini yoritadigan falsafiy asar hisoblanadi. Rumiycha bu asarida insonning haqiqiy haqiqatga yetishish yo'li faqat tashqi olamdan emas, balki ichki olamdan bo'lishini ta'kidlaydi. Asar ma'naviyatga bo'lgan chuqur intilish, o'zlikni anglash va insonning ruhiy kechinmalarini kashf qilish bilan bog'liq.

Asarda Rumiylar inson qalbidagi chuqur sirlarni ochishga harakat qiladi, ichki olamni kashf etishni eng oliy vazifa deb biladi. U hayot mazmunini, insonning o'zligini topishi va haqiqiy erkinlikka yerishish yo'lida o'zining chuqur tajribalariga asoslanib yozadi. «Ichindagi ichindadir» iborasi o'zligimizning haqiqiy tabiatini kashf etish kerakligini, insonning haqiqiy boyligi va qudrati uning ichida yashirin ekanligini anglatadi.

Mashoyixlar «O'zini bilgan avliyo bo'ladi» deya bejiz aytishmagan. Chunki bu asar, avvalo, o'sha inson haqida - siz haqingizda, men haqimda, umuman, hammamiz haqimizda. Bizning o'zligimizni bilishimiz haqida. Axir, olamda bundan qiziqarliroq, bundan qiziqroq yana nima bor?!

«Xuddi shunday, - davom etadi Rumiylar hazratlari, - zamonamiz olimlari ham qilni qirq yoradilar, o'zlariga bog'liq bo'lmaga narsalarni juda yaxshi biladilar, ammo o'ta muhim, o'zlari uchun qolgan barcha narsalardan yanada yaqin bo'lganni, ya'ni o'zlarini bilmaydilar. Hamma narsadan yaqin bo'lgan borliq bu - ularning menligi». Mavlono Rumiylar insonni, avvalo, ko'zini ochishga va ochilgan ko'zlar bilan o'z mohiyatiga nazar tashlashga undaydiki, bu bilan ul valiy zot insonning o'zi butun biro lam - kichik olam ekanligini uqtiradi.

Hazrat o'gitlaridagi yana bir jihatga alohida to'xtalib o'tmoq joiz. Bu ham bo'lsa - ruh va jism o'rtasidagi muvozanat masalasi. Bizdan ko'pchiligimiz shundaymizki, ruh haqida gapirilsa (garchi bu borada insonga kam ilm berilgan esa-da) darhol ruhparast bo'lishga tirishamiz, qolgan vaqtlarda esa o'z-o'zidan jism bandalariga aylanib qolganimizni o'zimiz ham sezmaymiz. Asli haqiqat nimadan iborat? Yana ham to'g'rirog'i, qanday holda biz haqiqatga eng ko'p yaqin borgan bo'lamiz? Agar savolni shunday qo'yish mumkin bo'lsa, javobni yana Rumiylar hazratlaridan eshitamiz: «Agar danakni chaqib, mag'izini eksang, unmaydi. Agar qobig'i bilan birga tuproqqa qadasang-chi, unish hodisasi yuz beradi». Danak mag'zini ruh-u, qobig'ini jism deb olinsa, demak, inson bolasi biron maqsadga yetishmak uchun har ikki asosga suyanishi zarur. Aks holda maqsad hosil bo'lmas. Modomiki shunday ekan, odamzod yashash va kelajakka intilish asnosida har qanday bir tomonlamalikdan, goh u yon, goh bu yonga og'ib ketishlardan tiyilib, ana o'sha oltin o'rtalik boshini tutmog'i zarur keladi.[2]

Jaloliddin Rumiyning "Ichindagi ichindadir" asarining bugungi kun uchun ahamiyati juda katta, chunki hozirgi davrda ko'plab insonlar moddiy hayotga haddan ziyod berilib, o'z ichki dunyosini, ruhiy o'sish va haqiqatni anglash imkoniyatini unutish tendensiyasiga ega. Zamonaviy hayotning shiddati va texnologiyaning o'sishi insonlarni ko'pincha tashqi olam bilan chegaralangan holda qoldiradi. Bu esa ko'pincha stress, ruhiy tanglik va ma'nosizlik hissini keltirib chiqaradi. Rumiylar esa insonlarni o'z-o'zini anglashga va ruhiy tinchlikka undaydi.

"Ichindagi ichindadir" asari bugungi kunda insonlarni moddiy muvaffaqiyatlar va tashqi qadriyatlar ortidan quvish o'rniga, ichki dunyolarini boyitishga, o'zlarini anglashga yo'naltiradi. Rumiyning fikriga ko'ra, haqiqiy baxt va tinchlik tashqi narsalarda emas, balki insonning o'z yuragida va qalbida yotadi. Shu bois, bugungi kunda insonlar Rumiyning bu asarini o'qish orqali ruhiy poklanish, chuqur fikrlash, sabr-toqat va ichki tinchlikka erishish yo'lini topishlari mumkin.

Rumiylarida insonning Allohga bo'lgan ixlosining cheksizligimi, uning ichki kechinmalar orqali mavjud ekanligini ifodalaydigan jumlar ham talaygina. Bu nafaqat muhabbatni, balki inson va Yaratgan o'rtasidagi ajralmas bog'liqlikni ham ulug'laydi. "Sening xayoling mening ko'zimdadir. Isming tilimda. Zikring dilimdadir. Shunday ekan, qayerga maktub yozay?"

1. "Sening xayoling mening ko'zimdadir". Bu yerda muhabbatning hamma narsani qamrab olishi tasvirlangan. Odam o'z sevgan insoni yoki Allohni ko'z oldidan hech qachon yiroqlashtira olmaydi. Bu faqat tashqi ko'rish emas, balki ichki sezgi va ruhiy yaqinlikni ham ifodalaydi.

2. "Isming tilimda. Zikring dilimdadir». Bu orqali esa sevgining har bir qismga - tilga, yurakka, va fikrlarga singib ketganini ko'rishimiz mumkin. Zikr tushunchasi, ayniqsa, tasavvufda Allohning ismini va sifatlarini eslab, qalbni poklash ma'nosini bildiradi. Shunday qilib, bu nafaqat oddiy sevgi, balki ilohiy sevgining cho'qqisini tasvirlaydi.

3. "Shunday ekan, qayerga maktub yozay?". Bu savol ichki ziddiyatni va javobning o'z ichimizda ekanini anglatadi. Odamga boshqa joyga, masofa yoki vaqtga

bog'liq bo'lmagan holatda, sevgini ifodalashga hojat yo'q, chunki bu sevgi hamisha ichida yashaydi.

Rumiy falsafasida tan va ruh masalasi ham bor. «Tiniq suv ichidagi har narsani ko'rsatgani kabi inson ruhi tabiati bilan birga bilim va ko'zga ko'rinmagan barcha narsalarni ko'rsatadi. Osti va ustidagi barcha narsalarga bir narsa qo'shmay, ayirmay ko'rsatish xususiyati suvning yaratilishida mavjud. Biroq suvga tuproq yoki boshqa rang aralashsa, bu xususiyat yo'qoladi.» Jaloliddin Rumiy hazratlarining ushbu hikmatli iborasi inson ruhi, uning pokligi va bilimga ochiqligini tabiat hodisalari orqali izohlaydi. Ushbu so'zlarni tahlil qilar ekanmiz, quyidagi asosiy nuqtalarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Suv va ruhning o'xshashligi: Rumiy suvni inson ruhining ramzi sifatida tasvirlaydi. Tabiatan suv pok va tiniq bo'ladi. Inson ruhi ham o'z tabiiy holatida pok va tiniq bo'lib, haqiqatni aks ettira oladi. Ruh o'z mohiyatida Allohdan ato etilgan bo'lib, barcha sirlarni idrok eta olish qobiliyatiga ega. Suv hammasini ko'rsatadi, ya'ni suv ostidagi va ustidagi narsalarni aralashmasdan aks ettiradi. Inson ruhi ham pok holda nafs yoki xurofot bilan bulg'anmasa, haqiqatni to'g'ri idrok qila oladi.

2. Tuproq yoki rangning aralashuvi: Rumiy suvga tuproq yoki boshqa rang qo'shilishini ruhning bulg'anishi deb tushuntiradi. Inson o'z nafsiiy istaklariga berilsa, ruhining tiniqligi yo'qoladi. Xurofot va noto'g'ri bilimlar, ya'ni ruhga zarar yetkazuvchi noto'g'ri g'oyalar, soxta e'tiqodlar va noto'g'ri qadriyatlar insonni asl haqiqatdan uzoqlashtiradi. Gunohlar va dunyoviy tashvishlar ham ruhning tiniqligini yo'qotadigan omillardan hisoblanadi. Bu ibora insonning haqiqiy mohiyatini, ya'ni ichki dunyosini anglashga qaratilgan. Ruh o'zining asl tabiati bilan Allohning sirlarini va mavjudotning ichki mohiyatini aks ettiradi. Ruhni insonning ichki "ko'zi» deyish mumkin. Agar bu ko'z pok bo'lsa, u barcha narsalarni haqiqiy holida idrok qiladi. Agar ruh buzilsa, insonni noto'g'ri qarashlar egallaydi. Rumiy bu yerda ruhni poklash va uni asl holatida saqlashga chaqiradi. Suv kabi tiniq ruh haqiqatni ochib beradi, o'zini anglash va ilohiy haqiqatni tushunish imkonini beradi. Bulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, inson ruhining tiniqligini saqlash, uni nafs va dunyo bulog'idan himoya qilish orqali ilohiy haqiqatga erishishi mumkin.

Jaloliddin Rumiyning «Ichindagi ichindadir» asari o'quvchiga tanganing uchinchi tomonini ko'rishni o'rgatadi. Nafaqat bu asar, balki Rumiyning boshqa asarlari ham insonni o'z qalbini, o'zligini tushunishi va anglashi sari yetaklaydi. Bu esa hozirgi global dunyo uchun qadrli manba bo'lib qolmoqda va asar yozilganiga bir necha asr bo'lganiga qaramay haligacha o'z ta'sirini yo'qotgani yo'q. Insonlar ko'pincha, ayniqsa, hozirgi zamonda moddiy boyliklarni orttirishga intilib, ma'naviy jihatdan zaiflashib borishmoqda, natijada ular o'zlarini yo'qotib, ichki muvozanatlarini topa olmaydi. "Ichindagi ichindadir" asari esa insonlarga haqiqiy hayotiy ma'noni topish va hayotga o'gacha nazar bilan qarashni o'rgatadi. Shu orqali ular o'zlarida tinchlik, baxt va hotirjamlik topishlari mumkin. Zero, inson o'zini anglamaguncha, o'zligini anglay olmaydi, bu bilan esa haqiqatga yetishish imkonsiz. Asar o'zlikka qaytish, ruhiy poklanish va ichki boylikka erishish, shu orqali haqiqiy baxt va tinchlikka yetaklaydigan bebaho manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jaloliddin Rumiyy «Ichindagi ichindadir». Toshkent. Yoshlar matbuoti - 2023.
2. https://www.wikiwand.com/uz/articles/Ichindagi_ichindadir.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/mavlono-jaloliddin-rumiyy-ichindagi-ichindadir-parcha.html>.